“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” FANINING UMUMIY AHAMIYATI VA YURIDIK SHAXSLARDAN, AYLANMADAN HAMDA JISMONIY SHAXSLAR MOL-MULKIDAN OLINADIGAN SOLIQLARNING DAVLAT BYUDJETIDAGI AHAMIYATI.

Abdivoitova Marjona Baxtiyor qizi
Qarshi davlat texnika universiteti
Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti talabasi
abdivaitovamarjona878@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.19886572

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq va soliqqa tortish fani haqida umumiy tushunchalar, yuridik shaxslardan undiriladigan asosiy soliqlar va yig‘imlarning tarkibi, aylanma soliqning iqtisodiy mohiyati, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: soliq, yuridik, jismoniy shaxs, iqtisodiyot, ko‘nikma, majburiyat, byudjet, mexanizm, huquq, tizim, davlat.

Bilamizki, yurtimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddalashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalalarni yoshlarimizga targ‘ib etish esa muhim omildir.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi va mustaqillikka erishilgandan so‘ng, 1990-yillarning o‘rtalarida o‘quv rejalariga faol kirib keldi va shuningdek, bu davrda yangi soliq tizimi va siyosatini o‘rganish zarurati ushbu fanning o‘qitilishini taqozo etdi. 1995-1996 yillar, O‘zbekiston iqtisodiyotining bozor tamoyillariga o‘tishi bilan asosiy davr boshlandi. “Soliqlar va soliqqa tortish” fani bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjetini shakllantirish va soliq mexanizmlari, shuningdek, turlari va hisoblash tartibini o‘rgatadi. Fanning asosiy maqsadi esa talabalarda soliqlar to‘g‘risida nazariy bilimlar va soliq siyosatini tushunish hamda amaliyotda soliqlarni hisoblash, to‘lash, nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifalari: Soliq tizimining nazariy-huquqiy asoslarini o‘rgatish, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va amaldagi soliq turlari bo‘yicha bilimlarni shakllantirish, soliqlarni hisoblash, soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etish usullarini o‘rgatish, soliq yukini baholash va soliq rejalashtirish asoslarini tushuntirish, soliq ma‘murchiligi va soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlarini o‘rgatish kabilar va hk.

Fanning ob‘ekti: Davlat va yuridik/jismoniy shaxslar (soliq to‘lovchilar) o‘rtasida davlat budjetini shakllantirishda vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar.

Fanning predmeti esa soliqlar va soliqqa tortishning iqtisodiy mazmuni, soliq tizimining tarkibi va soliq munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy me‘yorlar, shuningdek, soliq stavkalari, imtiyozlar hamda hisoblash usullari majmuidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjeti barqarorligini ta’minlashda yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va majburiy yig‘imlar muhimdir, shu xususida, O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimi iqtisodiyotni tartibga solish, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishga xizmat qiladi. Yuridik shaxs — bu belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan, alohida mulkka ega bo‘lgan, ahuningdek, o‘z majburiyatlari bo‘yicha mulk bilan javob beradigan va mustaqil ravishda fuqarolik-huquqiy

munosabatlarda ishtirok eta oladigan tashkilotdir. Yuridik shaxslardan undiriladigan asosiy soliqlar mavjud.

Foyda solig‘i: Foyda solig‘i yuridik shaxslarning asosiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlaridan biri hisoblanib, bu soliq korxonaning hisobot davridagi sof foydasidan undiriladi va foyda solig‘i davlat byudjeti daromadlarining muhim manbaidir. U korxonalarni moliyaviy intizomga rioya etishga hamda xarajatlarni oqilona rejalashtirishga undaydi hamda ayrim tarmoqlar va investitsiya loyihalari uchun imtiyozlar berilishi iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Mol-mulk solig‘i: Yuridik shaxslarning balansida mavjud bo‘lgan bino-inshootlar va boshqa asosiy vositalar mol-mulk solig‘i obyekti bo‘lib, ushbu soliq mahalliy byudjetlarni shakllantirishda muhim, shuning bilan birga, mol-mulk solig‘i korxonalarni mavjud aktivlardan samarali foydalanishga undaydi va iqtisodiy resurslarning samarasiz band bo‘lishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yer solig‘i: Yer solig‘i yuridik shaxslarga doimiy foydalanish yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun undiriladi hamda bu soliq yer resurslaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantiradi hamda hududiy rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib, yer solig‘i stavkalari hududlar, yerning joylashuvi va maqsadli foydalanishiga qarab belgilanadi.

Aksiz solig‘i: Aksiz solig‘i ayrim turdagi mahsulotlar — alkogol, tamaki, yoqilg‘i va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlar ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi yuridik shaxslardan undirilib, bu soliq nafaqat byudjet daromadlarini oshirish, iste’molni tartibga solish va sog‘liq uchun zararli mahsulotlar iste’molini kamaytirish vazifasini ham bajaradi.

Soliqlardan tashqari, yuridik shaxslar tomonidan davlat foydasiga turli majburiy yig‘imlar ham to‘lab boriladi, jumladan, davlat bojlari, litsenziya va ruxsatnomalar uchun yig‘imlar, ekologik to‘lovlar kabi yig‘imlar mavjud va bu yig‘imlar ma’lum huquqiy harakatlarni amalga oshirish yoki tabiiy resurslardan foydalanish huquqi evaziga undiriladi. Davlatning maqsadli xarajatlarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi, shuningdek, O‘zbekistonda yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va yig‘imlar tizimi davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, mol-mulk va yer soliqlari hamda turli majburiy yig‘imlar iqtisodiyotning uzluksiz faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi hamda soliq tizimini takomillashtirish, shaffoflikni oshirish va soliq yukini oqilona taqsimlash orqali yuridik shaxslarning iqtisodiy faolligini yanada kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aylanmadan olinadigan soliq — bu soliq to‘lovchining ma’lum hisobot davrida tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olgan umumiy tushumidan undiriladigan soliq turi bo‘lib, bu soliqda soliq bazasi sifatida foyda emas, realizatsiya hajmi olinadi, shuningdek, bu holat tadbirkorlik subyektlari uchun soliq hisobini soddalashtiradi, yashirin daromadlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati uning soddaligi va barqarorligi bilan izohlanib, bu soliq korxonaning moliyaviy natijasiga bog‘liq bo‘lmagan holda, doimiy tushumdan undiriladi va bu esa davlat byudjeti uchun barqaror va oldindan prognoz qilinadigan daromad manbaini yaratadi. Mazkur soliq turi iqtisodiy jihatdan quyidagi funksiyalarni o‘z ichiga oladi: tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini qonuniylashtirish va soliq to‘lovchilarning hisob-kitob va hisobot yuritish xarajatlarini kamaytirish, kichik biznesning bozor iqtisodiyotidagi ulushini oshirib borish, soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini ta’minlash kabilar.Davlat byudjeti daromadlari tarkibida aylanmadan olinadigan soliq muhim, ayniqsa hududiy byudjetlar uchun barqaror moliyaviy manba sifatida o‘rin egallaydi, bu soliq kichik va o‘rta biznes subyektlari sonining ko‘pligi hisobiga keng soliq bazasini shakllantiradi. Aylanmadan olinadigan soliqning byudjet daromadlariga ta’siri quyidagilarda o‘zini namoyon qiladi: soliq tushumlarining muntazamligi va barqarorligi ta’minlanadi, byudjetni rejalashtirish va prognozlash jarayonlari yengillashtiriladi, hududiy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi mustahkamlanadi, soliq tushumlarining qisqa muddatda

yig‘ilishini ta’minlaydi hamda ushbu soliq turi iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish bilan birgalikda, davlat byudjetining mustahkam daromad manbai sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar asosiy moliyaviy manba bo‘lib, soliq tizimida jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlovchi muhim vositadir va mazkur soliq turi aholining mulkiy holatini inobatga olgan holda undirilishi bilan ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq — bu fuqarolarning mulk huquqi asosida egalik qilayotgan turar joylar, noturar binolar, inshootlar va boshqa ko‘chmas mulk obyektlariga nisbatan undiriladigan majburiy to‘lov bo‘lib, soliq bazasi mulk obyektining kadastr yoki baholangan qiymatiga tayanadi. Mazkur soliqning iqtisodiy mohiyati mulkdan foydalanish huquqi evaziga davlat foydasiga mablag‘ undirishdir va aholining real iqtisodiy imkoniyatlarini aks ettiruvchi barqaror soliq manbai bo‘lib, daromadga bog‘liq bo‘lmagan holda undirilishi bilan ajralib turadi hamda

mol-mulk solig‘i fiskal barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, asosan, mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibiga yo‘naltiriladi. Bu holat hududiy moliyaviy mustaqillikni kuchaytirishga va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur soliq turining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati quyidagilar hisoblanadi: soliq tushumlarining barqarorligi va muntazamligi, soliq bazasining kengligi va uzoq muddatli xarakterga egaligi va byudjet daromadlarini prognoz qilish imkoniyatining yuqoriligi, mahalliy infratuzilma hamda ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishdagi roli. Mol-mulk obyektlari sonining ortib borishi va ko‘chmas mulk bozorining rivojlanishi, soliq tushumlarining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va natijada, davlat byudjeti daromadlarining muhim qismi barqaror tarzda shakllanadi.

Ushbu soliq aholining mulkiy tabaqalanishini hisobga olish orqali soliq yukini adolatli taqsimlashga xizmat qiladi, ammo, qimmatbaho va katta hajmdagi mol-mulk egalari nisbatan ko‘proq soliq to‘laydi, bu esa ijtimoiy tenglik tamoyillarini barqarorlashtiradi hamda bu soliq mulkiy munosabatlarni tartibga solish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Mol-mulk solig‘i tizimini izchil takomillashtirish orqali byudjet daromadlarini oshirish, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari yanada kengaytirib boradi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani davlat moliya tizimining nazariy va amaliy asoslarini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining fiskal bazasini mustahkamlasa, aylanmadan olinadigan soliq byudjet tushumlarining barqarorligini ta’minlaydi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqlar esa mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini kengaytirib, hududiy rivojlanishga xizmat qiladi. Ushbu soliqlarning samarali undirilishi davlat byudjeti barqarorligini ta’minlash bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi nashri, amaldagi tahrir.
2. Karimov I.A. Soliq siyosati va iqtisodiy islohotlar. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
4. Qo‘chqorov A.Q., Isayev B.X. Davlat byudjeti va soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. Tursunov B.O. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy statistik ma’lumotlari va tahliliy sharhlari. — Toshkent.